



## ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIGA BOG‘LANGAN MUXAMMASLARNING MATNIY TADQIQI

**Muallif:** Shomurodova Sitara Xoshim qizi <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi doktoranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205154>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1157 inventar raqamli bayoz asosida XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitida Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslar she‘riy musobaqa shaklida faol davom ettirilgani aniqlanadi. Tadqiqot natijalari bayozlarni Navoiy g‘azallari matn tarixini, variantologiyasini va adabiy ta‘sir doirasini o‘rganishda mustaqil matnshunoslik manbasi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘lyozma bayoz, unvon, kolofon, matnshunoslik, kodikologiya, tekstologiya, taxmis, muxammas, adabiy musobaqa, Xorazm adabiy muhiti, she‘riy an‘ana, variantologiya, qo‘lyozma manbalar.

Sharq adabiyoti kontekstida shakllangan bayoz kabi qo‘lyozma to‘plamlar olimlar tomonidan adabiy jarayonni rekonstruksiya qilish, she‘riy an‘ananing uzluksizligini aniqlash va matn tarixini tiklash nuqtayi nazaridan o‘rganilmoqda. Garchi “bayoz” termini ko‘proq Markaziy Osiyo va turkiy adabiy muhitga xos bo‘lsa-da, uning mohiyati xalqaro ilmiy adabiyotlarda “manuscript poetic collections” (“qo‘lyozma she‘riy to‘plamlar”) tushunchasi doirasida talqin qilinadi.

Tadqiqotlarda bayozlar, avvalo, adabiy did va tanlov mahsuli sifatida baholanadi.

Professor A.Erkinovning fikricha, bayozlar tasodifiy nusxalar majmuyi emas, balki muayyan davr adabiy muhitining estetik qarashlarini aks ettiruvchi yozma manbadir. Olim bayozlarni adabiy xotira shakli sifatida talqin qilib, ular orqali she‘riy repertuar, mashhur g‘azallar doirasi va mualliflararo munosabatlarni aniqlash mumkinligini ko‘rsatadi[5; 9]. Bu yondashuv bayozlarni matnshunoslik tadqiqotlarida mustaqil manba sifatida jalb etish zarurligini asoslaydi.

Zilola Shukurovaning tadqiqotlarida bayozlarning adabiy tarixni tiklashdagi ahamiyati alohida urg‘u bilan ko‘rsatiladi. Jumladan, bayozlar yordamida kam o‘rganilgan yoki tarixiy manbalarda nomi kam tilga olingan shoirlar ijodini aniqlash mumkinligi ta‘kidlanadi. Bunday tadqiqotlarda bayozlar nafaqat mashhur shoirlar, balki adabiy muhitning oddiy vakillarining ham ijodiy merosini saqlab qolgan manba sifatida baholanadi[6; 26]. Bu holat bayoz fenomenining adabiyot tarixini kengroq va xolisroq yoritish imkonini berishini ko‘rsatadi. Qo‘lyozmalarni o‘rganishda kodikologik va tekstologik metodlarning uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi.

Kodikologiya doirasida qo‘lyozmaning jismoniy xususiyatlari — qog‘oz turi, xattotlik uslubi, sahifalash, muqova va yozuv shakli orqali bayozning yaratilish davri, hududi va ijtimoiy muhitini aniqlashga intilish kuzatiladi[1; 6]. Bunday yondashuv

bayozlarni faqat matn manbasi emas, balki moddiy madaniyat yodgorligi sifatida ham o'rganish imkonini beradi. Tekstologik tadqiqotlarda esa bayozlarda uchraydigan matn variantlari alohida e'tibor markazida bo'ladi. Olimlar variantlarni faqat kotib xatolari bilan izohlashdan voz kechib, ularni og'zaki an'ana, ijodiy tahrir va she'riy moslashtirish natijasi sifatida talqin qiladilar. Bu yondashuv variantologiya nazariyasini kengaytirib, bayozlarda uchraydigan matn o'zgarishlarini adabiy jarayonning tabiiy ko'rinishi sifatida baholashga imkon beradi.

Y.Is'hoqovning "Bayoz va bayozchilik tarixi" maqolasida bayozlar she'riy merosning faol harakatdagi shakli sifatida qaraladi. Ya'ni bayozlar orqali she'rlar o'qilgan, qayta ishlangan, taxmis va muxammaslar yozilgan[3; 87]. Bu holat bayozlarni faqat adabiy merosgina emas, balki ijodiy musobaqa, adabiy muhit mahsuli sifatida ko'rsatadi. Shu jihatdan, bayozlar she'riyat tarixini statik holatda emas, balki dinamik – harakatdagi jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiy tafakkurining yuksak cho'qqisi bo'lib, uning asarlari asrlar davomida turli shakldagi to'plamlar — majmua, terma devon va bayozlar orqali keng hududlarga tarqalgan. Ayniqsa, XIX asr bayozlari Navoiy g'azallarining xalq orasida ommalashuvi, adabiy-estetik ta'siri va matniy o'zgarishlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. XIX asr bayozlarining yana bir muhim jihati shundaki, ularda Navoiy g'azallariga yozilgan taxmis va muxammaslar keng uchraydi. Bu holat Navoiy she'riyatining faqat o'qilgan emas, balki ijodiy davom ettirilgan adabiy meros ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, bir necha qo'lyozma bayozlar tadqiqi davomida Navoiy g'azallariga yozilgan **taxmis va muxammaslar** Ogahiy, Munis, Husayniy, Amiriy, Komil, Ravnaq kabi shoirlar ijodida faol davom ettirilgani aniqlandi. Bu holat Navoiy she'riyatining XIX-XX asr adabiy muhitidagi yetakchi mavqeyini yana bir bor tasdiqlaydi. Bayozlarda Alisher Navoiyga murojaat masalasi haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi jadvalni ko'rish kifoya:

Inventar nomlanishi	raqami va	Ko'chirilgan yili va joyi	Kotib	Taxmislar soni
7006 Bayozi muxammasot		1313-yil, Xorazm	Mulla Bolta	31
1157 Bayozi muxammasot		1321-yil, Xorazm	Muhammadsharif Devon	37
1156 Bayozi muxammasot		1328-yil, Xorazm	Muhammadsharif Devon	34
1154 Bayozi muxammasot		1325-yil, Xorazm	Muhammad sharif Devon	24
1132 Bayozi muxammasot		1313-yil, Xorazm	Mulla Bolta Niyoz	16
1131 Bayozi muxammasot		1324-yil, Xorazm	Muhammadsharif Devon	28
1130 Bayozi muxammasot		1316-yil, Xorazm	Muhammad Ya'qub devon	11

Yuqoridagi jadvalga e'tibor berilsa, XX asrga xos bo'lgan qo'lyozma bayozlarda Alisher Navoiy ijodiga tatabbu'lar, taxmislar bog'lash XIX asrdagilarga nisbatan sezilarli ko'payganini ko'rish mumkin. Bu holat XX asr boshlarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar adabiyotda ham, estetik ideallarda ham mumtoz qadriyatlarga murojaat kuchayganini ko'rsatadi. Mumtoz shoirlarga, jumladan, Alisher Navoiy

ijodiga murojaat masalasi yetakchilik qilishi bevosita turkiy adabiyotning milliylikni saqlab qolish mezonida baholanganidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 1157 inventar raqamli bayozni matniy tadqiq etish jarayonida uning adabiy musobaqaning o'ziga xos maydoni bo'lgani aniqlandi. Qo'lyozmada Alisher Navoiyning g'azallariga turli shoirlar tomonidan bog'langan muxammaslar soni qirqqa yaqinni tashkil qiladi. 236 sahifadan iborat mazkur qo'lyozma bayoz forsiy va turkiy shoirlarning muxammaslarini o'z ichiga qamrab olgan. Unda Jomiy, Bedil kabi Sharq klassiklarining asarlarini ham, Tabibiy, Avaz kabi davr ijodkorlarining she'rlarini ham uchratish mumkin. Bayozning repertuari quyidagicha: Sa'diy, Bedil, Jomiy, Feruz, Mirzo, Sodiq, Devoniy, Ojiz, Amiriy, Bayoniy, Oqil, Avaz, Xonaxarobiy, Xoniy, G'aribiy, Sultoniy, Tabibiy, Niyoziy, Xokiy, Haqiriy, Umidiy, G'ulomiy. Bayoz nasta'liq xatida nihoyatda kichkina yozuvda yozilgan bo'lib, unvon qismi bilan boshlanadi va kolofon bilan tugaydi. Kolofonda mazkur bayoz Muhammad Rahimxon Feruz davrida Mahammadsharif Devon tomonidan ko'chirilgani, kotib "Devoniy" taxallusida she'rlarini bayozga kiritgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hijriy 1321-yil Rajab oyining o'ninchi kunida ko'chirildi, degan ma'lumotdan bilish mumkinki, mazkur bayoz 1903-yilning 1-oktyabr kuni itmomiga yetkazilgan. XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhitining o'ziga xosligidan xabar beruvchi bu qo'lyozma bayozda Alisher Navoiyga 40 ga yaqin o'rinda murojaat qilingani kuzatildi. Bu murojaatlar shunchaki emas, balki o'ziga xos she'riy musobaqa ekanligini taxmislar matni bilan tanishish asnosida anglab yetdik.

Gap shundaki, qo'lyozmada 17 ta shoirning Alisher Navoiyning besh g'azaliga bog'langan taxmisi navbat bilan keltirilgan. Bu g'azallarning nomi va qaysi shoirlar taxmis bog'laganini quyidagi jadvalda aniqroq ko'rish mumkin:

Alisher Navoiy g'azali	Taxmis bog'lagan shoirlar
Gul kerakmasdur manga majlisda sahbo bo'lmasa, Naylayin sahboni bir gul majlis oro bo'lmasa.	Tabibiy, Ojiz, Niyoziy, Rog'ib, Sodiq, Shunosiy, Kamoliy, Xokiy, Duoiy, Xayoliy, Haqiriy, Yusuf, Sultoniy, Oqil (14 nafar shoir Alisher Navoiyning mazkur ikki g'azaliga muxammas bog'lagan va ular bir bayozda jamlangan)
Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringga parvo aylasa, Har ko'ngul hamkim sening vasling tamanno aylasa	
Ko'zing ne balo qaro bo'lubdur, Kim jonga qaro balo bo'lubdur.	
Orazu xolingni bir dam ko'rmasam ey dilrabo, O'yladur mohkim ko'runmas ko'zuma oq-u qaro.	
Dayr aro mug'bachadin sog'ari mastona kerak, Nechakim tutsa ani to'ldurubon, yona kerak.	
	Ushbu g'azallarga Tabibiy va Avazning bog'lagan taxmisleri tartib bilan keltirilgan.

Qo'lyozmani matniy jihatdan tadqiq etish jarayonida uning taxmisnavislar musobaqasi sifatida paydo bo'lganini bilish mumkin. O'ziga xos jihati shundaki, yuqoridagi jadvalda nomlari keltirilgan shoirlarning barchasi, taxmisni to'liq amalga oshirgan, ya'ni taxmis bitish jarayonida Alisher Navoiy g'azallarining birorta baytidan voz kechilmagan. Navoiy "panjasiga panja urgan" taxmis mualliflari o'ziga xos adabiy musobaqada munosib ishtirok etishga harakat qilishgani taxmisning badiiyatidan

sezilib turadi. Demak, qo'lyozma bayozlar orqali davr shoirlarining mahoratlarini aniqlash imkoni ham mavjuddir.

Yana bir jihat. Nima uchun aynan mazkur 4 ta g'azalga murojaat qilingan? Ayniqsa, dastlabki ikki g'azal ("Gul kerakmasdur manga majlisda sahbo bo'lmasa" va "Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringga parvo aylasa" misralari bilan boshlanuvchi)ga 14 nafar shoir tomonidan murojaat qilinishi nima bilan bog'liq? Degan savolimizga "Xorazm urfiy maqomlari" kitobidan javob topdik. Mazkur kitobda Alisher Navoiyning bir necha g'azallariga murojaat qilingan. Xorazmda urf bo'lgan maqomlarning qadimiy matnlari tiklangan. "Gul kerakmasdur manga majlisda sahbo bo'lmasa" g'azali Rost maqomi g'azallarida "Talqini rost" qismida berilgan[2; 96]. "Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringga parvo aylasa" misralari bilan boshlanuvchi g'azal esa Navo maqomida "Talqini navo" qismida berilgan[2; 188]. Demak, bu ikki g'azal Xorazm hududida ham nihoyatda mashhur bo'lgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan bilish mumkinki, she'riy musobaqa uchun tanlangan g'azallar xalq orasida nihoyatda mashhur bo'lgan qo'shiq matnlari ichidan saralab olingan. M.Hamidova o'z tadqiqotlarida bayozlarning qo'shiqlar matnining to'plami sifatida ham ahamiyati katta bo'lgani haqida to'xtaladi[4; 7]. Bu holat bayozlar tarkibiga kiritilgan she'rlar shunchaki matn emas, balki xalq orasida mashhur bo'lib tanilgan g'azallarga bo'lgan munosabatning bir ko'rinishidir.

Qo'lyozma bayozlarning matniy tadqiqi shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy g'azallarining matn tarixi, variantologiyasi va bayozlardagi holati hali to'liq yakunlangan tadqiqot yo'nalishi emas. Mavjud tadqiqotlar ushbu manbalarni alohida-alohida o'rgangan bo'lsa-da, ularni yagona matn tarixiy jarayon sifatida kompleks tahlil qilish zarurati dolzarb masaladir. Qo'lyozma bayozlar Alisher Navoiy g'azallarining matn tarixini, variantologiyasini va adabiy ta'sir doirasini o'rganishda qo'shimcha emas, balki mustaqil va muhim matnshunoslik manbasi sifatida baholanishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. V. I. Kholkin. Textology as a search. // Voprosy literatury, October 2022, DOI:10.31425/0042-8795-2022-5-208-225
2. Xorazm urfiy maqomlari. – Toshkent: Adast poligraf. – 2021 y. 300 b.
3. Ё.Исҳоқов. Баёз ва баёзчилик тарихи. // Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фанб 1976. 78-100 бетлар.
4. Ҳамидова М. Қўлёзма баёзлар – адбий манба сифатида. – Тошкент: Фан, 1981. – 124 б.
5. A.Erkinov. Some Comments on Manuscript Bayoz. // Golden Scripts 2:4-27. DOI:10.52773/tsuull.gold.2024.2/QOZQ7686
6. Z.Shukorova. O'rta Osiyoda bayozchilik tarixi va taraqqiyoti. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, - 2024. 160 b.